




#### IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 21 686,8 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,9 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 11 806,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

##### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>21 686,8</b>	<b>120,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>3 457,6</b>	<b>87,3</b>	<b>15,0</b>
budget mablag'lari	1 353,3	84,9	6,2
Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	190,0	53,3	-
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	110,1	245,8	-
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	1 804,0	91,8	8,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>18 229,2</b>	<b>130,4</b>	<b>85,0</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	4 405,2	106,8	24,8
aholi mablag'lari	2 762,3	99,2	15,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	10 002,5	155,3	54,9
tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag'lari	1 059,0	166,9	5,8

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar





## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>21 686,8</b>	<b>1 811,7</b>	<b>10 797,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
qurilish-montaj ishlari	8 420,1	1 406,3	3 913,9
mashina, uskunarlar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	11 051,2	137,4	5 353,6
Boshqa xarajatlar	2 215,5	268,0	1 529,6

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 31,8 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunarlar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati ulushi 10,7 % li punktga ko'payganligi va boshqa xarajatlarning ulushi 10,0 % li punktga ko'payganligini ko'rsatmoqda.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 3 457,6 mlrd. so'mlik investitsiya mablag'lari kiritilib, bu ko'rsatkich jami investitsiyalarning 15,0 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,3 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish

manbalari hisobidan 18 229,2 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 85,0 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 130,4 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobiga 4 405,3 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 24,8 % oʻzlashtirildi. Aholining mablagʻlari hisobidan 2 762,3 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 15,1 % ni tashkil etdi.


Hisobot davrida Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 1 804,0 mlrd. soʻmlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 91,8 % ga oshgan yoki jami investitsiyalarning ulushi 8,3 % ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari hisobidan 1 059 mlrd. soʻmlik mablagʻlar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 5,8 %), bu oʻsish surʼati 166,9 % ni tashkil etdi, toʻgʻridan-toʻgʻri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 10 002,5 mlrd. soʻm (ulushi 54,9 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 155,3 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi hisobidan 110,1 mlrd. soʻm (ulushi 0,001 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 245,8 martaga koʻpaydi, Viloyat budjeti 1 353,3 mlrd. soʻm (ulushi 6,2 %) ushish surʼati 84,9 %. Suv taʼminoti tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi hisobidan 190,0 mlrd. soʻm, (ulushi 0,001 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 53,3 % ga kamaydi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar

Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishlash sanoatiga 3 975 mlrd. soʻm (18 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga 939,0 mlrd. soʻm (4,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga 311,1 mlrd. soʻm (1,0 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 1 778,7 mlrd. soʻm (8,0 %), tashish va saqlashga 714,7 mlrd. soʻm (3,3 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 4 256,0 mlrd. soʻm (20,0 %), shundan tabiiy gazni qazib olishga 4 227,8 mlrd. soʻm (19,5 %), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi faoliyat turiga 746,0 mlrd. soʻm (3,4 %), elektr energiyasi va gaz taʼminotiga 3 944,6 mlrd. soʻm (18,2 %), suv taʼminoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 255,8 mlrd. soʻm (1,2 %), qurilishda 1096,3 mlrd. soʻm (5,0 %), ulgurji va chakana savdoga 649,1 mlrd. soʻm (3,0 %), axborot va aloqa 138,1 mlrd. soʻm (0,6 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 251,8 mlrd. soʻm (1,2 %), taʼlimga 337,1 mlrd. soʻm (1,5 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 695,3 mlrd. soʻm (3,2 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 130,1 mlrd. soʻm (0,6 %), moliya va sugʻurta faoliyatiga 23,5 mlrd. soʻm (0,1 %), sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatishga 649,2 mlrd. soʻm (2,9 %), turar-joy qurilishiga 1 558,0 mlrd. soʻm (7,2 %) va boshqa faoliyat turlariga 99,4 mlrd. soʻm (7,5 %) toʻgʻri keldi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga  
kiritilgan investitsiyalar va kreditlar  
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



### 2023- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar  
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 20,0 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi, shu bilan birga, To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 46,0 %, Respublika byudjeti hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 6,0 % ni tashkil etadi.

### 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, %</i>
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>21 686,8</b>	<b>120,9</b>	<b>100,0</b>
Respublika budjeti	1 353,4	84,9	6,0
Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	190,0	53,3	0,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	110,2	245,8	0,0
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	1 804,0	91,8	8,0
Korxonalar mablag'lari	4 405,3	106,8	20,0
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 059,0	166,9	4,0
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	10 002,5	155,3	46,0
Aholi mablag'lari	2 762,3	99,2	12,0

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari 1 804,0 mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 91,8 % ni tashkil etgan.



**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan  
investitsiyalar, mlrd. so'm**

	<i>2022- y. yanvar- dekabr</i>	<i>2023- y. yanvar- dekabr</i>	<i>o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, % da</i>	<i>jami investitsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSH doll.</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>16 012,8</b>	<b>21 686,8</b>	<b>120,9</b>	<b>336 718,6</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	2 662,3	3 373,2	113,1	39 727,6
Shahrisabz sh.	226,4	439,8	173,4	2 000,0
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	2 664,1	2 691,0	90,2	62,4
Dehqonobod	329,1	331,2	89,8	-
Qamashi	311,5	541,2	155,2	2 420,0
Qarshi	752,4	794,3	94,3	9 021,6
Koson	521,0	629,4	107,9	-
Kitob	1 261,3	866,3	61,3	24 311,0
Mirishkor	405,6	358,9	79,0	7 844,1
Muborak	3 361,4	4 393,8	166,7	1 324,4
Nishon	1 821,4	4 360,0	213,7	203 244,9
Kasbi	447,3	893,7	178,4	44 762,5
Ko'kdala	108,7	305,6	251	-
Chiroqchi	527,6	717,6	121,4	-
Shahrisabz	331,7	487,4	131,2	-
Yakkabog'	280,9	503,3	160,0	2 000,0

### Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar (2023- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>6 158,4</b>	<b>118,3</b>
<i>shahrlar:</i>		
Qarshi sh.	7 836,3	110,7
Shahrisabz sh.	1 790,1	170,7
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	12 243,1	88,1
Dehqonobod	2 097,5	88,0
Qamashi	1 867,0	151,8
Qarshi	2 953,8	92,0
Koson	2 041,0	105,3
Kitob	3 104,0	60,2
Mirishkor	2 799,4	77,3
Muborak	47 449,5	114,8
Nishon	26 472,2	208,9
Kasbi	4 241,7	174,6
Ko‘kdala	1 643,2	247,4
Chiroqchi	2 714,9	117,0
Shahrisabz	2 090,2	129,1
Yakkabog‘	1 800,2	156,7

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Muborak tumani 47 449,5 ming so‘m, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o‘zlashtirilgan, G‘uzor tumani 12 243,1 ming so‘m, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq.

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:				
		Respublika budjeti	korxonalar mablag'lari	aholi mablag'lari	xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>21 686,8</b>	<b>1 353,3</b>	<b>4 405,2</b>	<b>2 762,3</b>	<b>11 806,6</b>	<b>1 804,0</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi sh.	3 373,2	639,1	1 003,0	241,6	1 156,4	155,8
Shahrisabz sh.	439,8	41,1	149,4	66,5	107,8	-
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	2 691,0	50,2	1 148,7	194,5	1 255,9	-
Dehqonobod	331,2	33,8	38,3	203,0	2,0	-
Qamashi	541,2	52,4	144,4	147,9	169,7	-
Qarshi	794,3	37,3	94,2	155,8	277,8	5,1
Koson	629,4	31,3	23,8	228,2	197,7	111,8
Kitob	866,3	45,1	146,6	249,6	339,6	-
Mirishkor	358,9	13,9	70,5	148,7	106,6	-
Muborak	4 393,8	6,3	1 258,1	166,6	2 946,2	5,1
Nishon	4 360,0	26,4	139,4	82,1	3 978,6	1 354,7
Kasbi	893,7	47,5	16,6	174,5	607,3	-
Ko'kdala	305,6	181,8	8,7	61,3	51,6	-
Chiroqchi	717,6	31,5	30,2	375,7	262,4	-
Shahrisabz	487,4	61,0	49,2	99,4	206,9	171,4
Yakkabog'	503,3	54,2	83,7	166,6	139,4	-

davomi

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:		
		Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jang'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jang'armasi	tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari


<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>21 686,8</b>	<b>190,0</b>	<b>110,1</b>	<b>1 059,1</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	3 373,2	68,5	-	264,3
Shahrisabz sh.	439,8	-	-	74,9
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	2 691,0	8,6	-	32,9
Dehqonobod	331,2	45,5	-	8,4
Qamashi	541,2	0,01	-	26,7
Qarshi	794,3	0,1	-	228,3
Koson	629,4	24,4	-	123,9
Kitob	866,3	0,0	-	85,2
Mirishkor	358,9	2,2	-	16,4
Muborak	4 393,8	0,2	-	16,5
Nishon	4 360,0	3,3	110,1	19,9
Kasbi	893,7	0,01	-	47,6
Ko'kdala	305,6	0,0	-	2,2
Chiroqchi	717,6	0,3	-	17,3
Shahrisabz	487,4	12,7	-	58,0
Yakkabog'	503,3	23,2	-	36,0

### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 1 027,1 ming kv.m. bo'lgan 4 853 ta uy-joy qurilgan (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 90,3 %) shu jumladan, qishloq joylarda 443,6 ming kv.m, 2097 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 1 558,0 mlrd. so'mi yoki 7,2 % i turar-joy qurilishida o'zlashtirildi.

Umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida 133,4 mlrd. so'm atrofida investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1,0 foizini tashkil qiladi.

**Qurilish faoliyati.** 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 9 246,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (umumiy hajmga nisbatan % da)




Qurilish ishlari umumiy hajmining 70,0 % ni binolar va inshootlarni qurishga, 18,0 % ni fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilishga 11,0 % ni ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 62,0 % ni yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to'g'ri keladi.

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)



## Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd.so'm



Jami qurilish ishlaridan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 27,3 % ni tashkil etib, ulushi 1,1 % li punktga ko'paydi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasi 50,7 % ni tashkil etib, 2,7 % li punktga kamaydi, norasmiy sektorning ulushi 23,0 % ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi,  
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 5 754,8 mlrd. so'mni (ulushi 62,0 % ) tashkil etdi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 3 491,3 mlrd. so'mni (ulushi 37,0 %) tashkil etdi.



**Qurilish ishlari turlari bo'yicha  
(jamiga nisbatan foiz hisobida)**




### Yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm

	2022- yil	2023- yil	o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>7 793,8</b>	<b>9 246,1</b>	<b>107,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	2 278,3	2 711,2	108,7	29,3
Shahrisabz sh.	338,8	501,6	138,1	5,4
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	772,9	906,8	106,1	9,8
Dehqonobod	157,5	182,8	103,6	2,0
Qamashi	224,9	265,6	105,9	2,9
Qarshi	553,1	648,5	105,9	7,0
Koson	426,5	508,9	107,2	5,5
Kitob	371,8	445,8	107,4	4,8
Mirishkor	168,5	191,2	101,6	2,1
Muborak	703,9	778,2	100,1	8,4
Qarshi	164,5	185,5	101,6	2,0
Kasbi	292,9	336,9	103,2	3,6
Ko'kdala	102,5	30,8	155,5	0,3
Chiroqchi	636,3	844,7	105,3	9,1
Shahrisabz	246,0	301,8	110,3	3,3
Yakkabog'	355,4	406,0	102,6	4,4



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha qurilish ishlari hajmida Qarshi shahri 2 711,2 mlrd. so'm, G'uzor 906,8 mlrd. so'm, Chiroqchi 844,7 mlrd. so'm va Muborak 778,2 mlrd. so'm hajmli tumanlar yuqori ulushlarga ega.

## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlarining yuqori o'sish sur'ati Kitob (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 %), Shahrisabz shahri (139,9 %), Karshi shahri (107,7 %) va Ko'kdala (155,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qurilish ishlari hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar G'uzor tumani (4 125,5 ming so'm, o'sish sur'ati 103,4 %), Qarshi shahri (9 287,6 ming so'm yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 %), Muborak tumani (8 403,8 ming so'm, o'sish sur'ati 98,1 %) hamda Shahrisabz shahar (3 435,4 ming so'm, o'sish sur'ati 131,4 %) qayd etildi.




### Aholi jon boshiga qurilish ishlari (2023- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 625,6</b>	<b>104,7</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	9 278,6	105,0
Shahrisabz sh.	3 435,4	131,4
<i>tumanlar:</i>		
Gʻuzor	4 125,5	103,4
Dehqonobod	1 157,5	102,5
Qamashi	916,0	104,2
Qarshi	2 411,5	103,2
Koson	1 650,0	105,0
Kitob	1 597,4	106,1
Mirishkor	1 491,5	100,1
Muborak	8 403,8	98,1
Nishon	1 126,1	99,4
Kasbi	1 599,1	101,5
Koʻkdala	165,8	26,7
Chiroqchi	3 195,8	115,3
Shahrisabz	1 294,2	108,8
Yakkabogʻ	1 452,1	100,9




## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko‘rsatkichlari Muborak (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,2 %), Shahrisabz shahar (ulushi 45,5 %), G‘uzor (ulushi 42,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Qarshi shahrida 29,3 % ni, G'uzor tumanida 9,8 % ni va Chiroqchi 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Ko'kdala (0,3 %), Dehqonobod (2,0 %) va Nishon (2,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.